

"TASDIQLAYMAN"

Toshkent davlat agrar universiteti

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori



A. Abduvasikov

Noyabr 2022y.

Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar M.F.Y. Universitet ko'chasi, 2-uy manzilidagi Tosh DAU Biolaboratoriya o'quv binosini ekofiziologik tadqiqotlar ilmiy laboratoriyasiga moslashtirib rekonstruksiya qilish bo'yicha smeta-loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun eng yaxshi takliflarni tanlashni e'lon qiladi.

**TEXNIK TOPSHIRIQ**

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni.
1	<b>Ob'ektning nomlanishi</b>	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar m.f.y. Universitet ko'chasi 2-uy Tosh DAU bialaboratoriya o'quv binosini ekofiziologik tadqiqotlar ilmiy laboratoriyasiga moslashtirib rekonstruksiya qilish obyekti
2	<b>Buyurtmachi</b>	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti
3	<b>Loyihalashtirish uchun asos</b>	Buyruq. Bayonnoma qaror
4	<b>Bosh loyiha tashkiloti</b>	Tender savdolari orqali aniqlanadi
5	<b>Loyihalashtirish bosqichi</b>	Ishchi loyiha
6	<b>Qurilish maydoni haqida malumot, binoni maxsus texnik ko'rikdan o'tkazish</b>	Texnik ko'rik xulosasiga asosan
7	<b>Ob'ekt joylashgan hududi</b>	Toshkent viloyati Qibray tumani Salar m.f.y. universitet ko'chasi 2-uy
8	<b>Ob'ektning taxminiy narxi</b>	8 500,000 mln.so'm.
9	<b>Qurilish turi</b>	Rekonstruksiya
10	<b>Ilmiy tadqiqotlar o'quv laboratoriyasi binosi</b>	Loyiha ishlari SHNK 1.13.08-06 va boshqa turdagi normativ xujjatlar talablariga asosan bajarilsin.
11	<b>Bosh pudratchi</b>	Tender savdolari orqali aniqlanadi.
12	<b>Shaharsozlik, hajmli – rejalashtirish va konstruktorli kishlariga talablar</b>	Loyiha xalqaro standartlarga javob beradigan yangi texnologiyalar, tuzilmalar va materiallardan foydanishni o'z ichiga oladi.
13	<b>Loyiha yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar</b>	Loyihalash jarayonidan oldin 3 xil ko'rinishda eskiz loyiha tayyorlanadi, ulardan eng maqbuli ishchi loyiha uchun rahbariyat tomondan tasdiqlanadi.
13.1	<b>Ekofiziologik tadqiqotlar ilmiy Laboratoriyasi obyektining loyiha smeta hujjatlarida quyidagilar amalga oshiriladi.</b>	Loyihalashtirishda quyidagilarni ko'zda tutish lozim: 1. Mavjud asosiy bino va omborxonalarining texnik holatini tekshirish. Texnik xulosa asosida rekonstruksiya loyihasini ishlab chiqish; 2. Hududdagi mavjud transformator podstansiyasining fasad qismini joriy ta'mirlash; 3. Hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish. Ichki yo'llarni qayta qurish, ta'mirlash; 4. Hudud chegarasini metal panjaralar va g'ishtli devorlar bilan o'rash. 5. Maxsus oqova suvlarni qabul qiluvchi quduq qurish. 6. Tashqi injinerlik tarmoqlari sovuq suv, kanalizatsiya yuqori

kuchlanishli elektr kabellarini loyihalash.

Rekonstruksiya qilinishi ko'zda tutilgan bino ikki qavatdan tashkil topgan bo'lib, o'q boyicha o'lchamlari 54,0x24,0 m ni tashkil etadi.

Tashqi devorlar temir-beton paneldan iborat, qalinligi 300 mm.

Ichki pardadevorlar 120 mm qalinlikdagi g'ishtdan iborat.

Rejalashtirish bo'yicha yechimlar binoning funksiyasiga muvofiq, shuningdek, insolyatsiya, shamollatish tizimlari va tabiiy yoritishni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.

Tashqi pardoqlash:

Fasadlar: sifatli materiallar bilan zamonaviy uslubda bajarilsin va 3 xil dizayn yechimlari ishlab chiqilsin:

- poypesh 20 mm qalinlikdagi granit;

- devor yuzasi:

1- setka ustidan suvoq, rangli buyoqlash "travertin" yoki "dojdik";

2- quruq montaj asosida fibro-sement plitalari "Ecoplit";

3- mavjud keramik qoplamali temir-beton panellarning oraliq choklarini "Alukobond" bilan qoplash.

- bino karniz qismi metal karkasli "Alukobond";

- Binoga kirish qismiga - ayvonli zinalar va panduslarni ko'zda tutish;

Ichki pardoqlash:

- Shift – barcha xonalarda gipsokarton, armstrong hamda moyli bo'yoq bilan bo'yash; sanitar tugunlarda plastik qoplama.

- Devorlar – laboratoriya xonalarida sanitar me'yorlar va qoidalarni hisobga olgan holda pardoq materiallaridan foydalanilsin; rahbariyat, xodimlar va o'quv xonalarida yorqin rangdagi suvli bo'yoqlar bilan bo'yoqlash.

- texnik va yordamchi xonalar – ohak-suv aralashmali bo'yoqlar bilan bo'yoqlash,

- sanitar tugunlarda – shift balandligigacha keramik plitkalar bilan qoplash.

- Eshiklar – xonalarda sifatli MDF materialidan tayyorlangan:

- hojatxonalariga umumiy kirish qismida - MDF yoriq (глухой); ichkari qismida – oynavand (ko'rinmaydigan) alyumin eshik;

- texnik xonalarda - o'tga chidamli materialdan eshiklarni o'rnatish;

- favqulotda yong'in xavfsizligi eshiklari - amaldagi yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq.

- Derazalar - tokchalari bilan ikki kamera oynali PVXdan tayyorlangan; shamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizimli yoki fortochkali;

- Ichki deraza tokchalari PVXdan;

- Tashqi deraza tokchalari dizayn yechimiga muvofiq;

- Pollar:

- texnik xonalarda beton pol;

- yo'lak va zinaxonalar "keromogranit" plitka;

- barcha ishchi va laboratoriya xonalarda epoksid asosli quyma pol yoki sirpanmaydigan "keramik" plitka;

- sanitar tugun xonalari "keramik" plitka;

- boshqaruv hamda o'quv xonalari – laminat qoplamali plitkka "Tarkett";

sanitar tugunlarda xonaning chekka burchagida nishab bilan trap

		<p>o'rnatishni inobatga olish.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- qolgan xonalar loyiha yechimiga binoan.</li> </ul> <p>Ichki bezatish estetik, sanitariya-gigiyena, iqtisodiy va yong'inga qarshi talablarni hisobga olgan holda bino va inshootlarning funksional maqsadlari asosida qabul qilinsin</p> <p>Bino va inshootlarning tashqi ko'rinishi estetik va memoriy. badiiy talablar, tashqi devorlarini ob-havo tasiridan himoya qilishini hisobga olgan xolda rejalashtirilsin.</p>
13.2	<p><b>Konstruksiyaviy yechimlar, yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiya materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-Loyihaning konstruksiyaviy yechimlarida zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olishi kerak.</li> <li>- Barcha konstruksiya va materiallar mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak.</li> <li>- Loyihani ishlab chiqishda materiallarga minimal ta'sirni hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo'llash kerak.</li> <li>- me'moriy jihatdan ekspresiv tanlashda, texnologik va energiya tejaydigan zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish kerak.</li> <li>- Loyiha yechimlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya manbalaridan foydalanish kerak.</li> <li>- Bino konstruksiyalarini favqulodda vaziyatlarda, shu jumladan yong'in va zilzilalarda progressiv buzilishlardan himoyasini ta'minlash maqsadida yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning bikirligi va mustahkamligini ilmiy-texnik tekshirish.</li> </ul>
13.3	<p><b>Muhandislik va texnologik jihozlar, muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlashni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablar</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ta'minot tarmoqlari uchun loyihaviy yechimlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalari va uskunalaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.</li> </ul> <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p><b>Suv ta'minoti va oqova suv tarmoqlari:</b></p> <p>Suv ta'minoti QMQ 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv ta'minoti va kanalizatsiyasi", QMQ 2.04.02-97 talablariga muvofiq ichimlik, o't o'chirish va issiq suv ta'minoti, oqova suv tizimi bilan ta'minlanishi shart.</p> <p>Suv sifati amaldagi O'zDSt 950-2011 ichimlik suvi standartlariga muvofiq sanitariya talablariga javob berishi kerak.</p> <p>Sovuq va issiq suv quvurlari PVXdan amaldagi qoidalar talablariga muvofiq materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.</p> <p>Chiqindi suvlar oqimini kanalizatsiya tizimi orqali mavjud markaziy kanalizatsiya tizimlariga tushishini ta'minlash kerak.</p> <p>Mavsumiy yog'ingarchilik suvlarini QMQ 2.04.02-97 ga asosan mavjud oqova suvlar tizimiga yo'naltirish hamda temir beton lotoklari orqali chiqarilishini ta'minlash.</p> <p>Ichki suv ta'minoti polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak. Ichimlik suvi ta'minotining magistral quvurlarini shaxtalarda yotqizish kerak. Sovuq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Kirish joyida sovuq suv iste'moli hisoblagichini inobatga olish kerak.</p> <p><b>Issiqlik ta'minoti, isitish va shamollatish tizimi.</b></p> <p>Hududdagi mavjud avtomatlashtirilgan gaz va qattiq yonilg'ida ishlaydigan modul qozonxona orqali issiqlik ta'minoti bilan ta'minlash lozim.</p>

Xonalarning nisbiy namligi, isitish tizimini loyihalash harorati va binoga havo almashinuvi oralig'i me'yoriy xujjatlarga muvofiq qabul qilinishi kerak.

Bino va xonalarni isitish va shamollatish tizimi QMQ 2.04.05-91 "Ishitish, shamollatish va havoni tozalash" me'yoriy xujjatiga muvofiq ishlab chiqilishi kerak.

Ishitish tizimini loyihalashda zamonaviy biometalldan ishlangan radiatorlarni va sertifikatlangan plastik quvurlar ishlatilishi shart. Boshqaruv hamda o'quv xonalarida havo sovutish va tozalash (konditsionirovanie) tizimni ko'zda tutish lozim.

**Elektr ta'minoti tizimi.**

- elektr ta'minotining ishonchlilik darajasi bo'yicha - II toifa;

- energiya tejash chora-tadbirlari;

- binoning elektr yoritish tizimini loyihalashtirishda QMQ 2.01.05-98 va QMQ 2.04.17-98, shuningdek elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 tarmoqli mis simdan foydalangan holda loyihalash, favqulodda yoritishni ta'minlash. Zazemleniya va zanuleniyaning ko'zda tutish. Elektrenergiasini hisobga olish uchun elektr energiasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini ko'zda tutish.

Uskunalar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqaruvchilari "Buyurtmachi" bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Xonadagi havo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilash.

Barcha xonalarni shamollatish quvurli ventilyatorlar yordamida amalga oshirilsin.

Loyihalashda QMQ 2.01.18-2000\* ga energiya iste'mol qilishning yangi standartlarini hisobga olgan holda va QMQ 2.04.05-97 binolarni loyihalash qo'llanmasining talablariga rioya qilinsin.

**Quyosh panellari.** Ikki qavatli binoning tom qismiga elektr yoritish tizimi uchun quyosh panellari tizimini ko'zda tutilsin.

**Past kuchlanishli tarmoqlar.**

Loyihada past kuchlanishli tarmoqlar va aloqa tarmoqlarini (televideniya, internet, wi-fi, videokuzatuv, yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi) tortish shart.

Ob'ekt atrofi bo'ylab videokuzatuv uskunalarini o'rnatilishi shart.

Ob'ekt binolari avtomatik yong'in xavfsizligi signalizatsiyalari bilan jihozlanishi lozim. Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan habarlash va yong'in o'chirish moslamalari"ga muvofiq SHNK 2.04.09-07 "Bino va inshootlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalga oshirish.

14	Tashqi muhandislik izlanishlar zaruriyati	Texnik shartlarga muvofiq bajariladi
15	Moliyalashtirish manbai	Byudjetdan tashqari mablag'lar, xomiylikning grant mablag'lari
16	Qurilishni boshlash va tugallash muddatlari	2023 y. fevral 2023 y. sentyabr

17	Yong'in xavfsizligi talablari	SHNK 2.01.02-04 talablariga asosan bajarilsin.
18	Tashqi muhandislik tarmoqlariga bo'lgan talablar	ART, 1:500 nisbatidagi topografik surat va muxandislik geologiyasining (talabga ko'ra) xulosasiga asosan.
19	Ichki muhandislik tarmoqlariga bo'lgan talablar	Elektr yoritgich tizimi. Zamonaviy energiya tejaydigan yoritgich tizimli jihozlarni qo'llang. Isitish tizimi. Isitish moslamalari – bimetallik radiatorli quvurlar – polipropilen va po'lat jihozlarni qo'llang. Shamollatgich. Ta'minlangan – mexanik va tabiiy induksiya jihozlarini qo'llang. Ichimlik suv quvuri va oqava suv quvuri. Polipropilen va po'lat quvurli, nasoslar – yuqori import darajali.
20	Energiya sarfi bo'yicha talablar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq ob'ektning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy innovatsion yechimlarni taqdim etish. Lampalarni energiyani tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallaridan foydalanishni ta'minlash.
21	Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha talablar	Atrof muhitga ta'sir bayonotlari (ZVOS) loyihasi loyiha tashkiloti tomonidan taqdim etiladi.
22	Loyiha-smeta xujjatlarini tegishli tashkilotlar bilan kelishish	Bosh reja va binoning fasad qismi Toshkent viloyat qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilsin. Loyiha bo'yicha qarorlar zarur bo'lgan tashkilotlar bilan kelishilsin. Jumladan, sanitariya-epidemiologiya xizmatlari, YXB IIV, GI "Uzgosenergonadzor" DI.
23	Yerlarni rekultivatsiya qilish, hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha talablar	Binolardan holi bo'lgan va obodonlashtirish uchun mo'ljallangan maydon obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihasini amalga oshirish. Hududda obodonlashtirish ishlari 13.1-bandda keltirilgani bo'yicha ta'minlang.
24	Qurilishni tashkillashtirish loyihasi	SHNQ 1.13.08-06 va boshqa turdagi normativ hujjatlar talablariga asosan bajarilsin.
25	Fuqarolik ximoyasi va favqulotda vaziyatlardan ogohlantirish talablari	Favqulotda vaziyatlar boshqarmasining normativ hujjatlari talablariga asosan bajarilsin.
26	Imkoniyati cheklangan shaxslarga sharoit yaratish bo'yicha talablar	SHNK 2.07.02-07 ni hisobga olgan holda, harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar (nogironlar va boshqalar) aholi guruhlari uchun qulay kirishni ta'minlash choralarini ko'rish, nogironlar va harakatlanishi cheklangan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalash.
27	Buyurtmachiga topshiriladigan loyiha-smeta xujjatlari tarkibi	- loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq bo'lish ikerak:

- smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bo'yicha amaldagi narxlar tartibiga muvofiq ishlab chiqish: Loyihachi tashkilot ekspertiza davomida loyiha yechimlarini himoyalashni **Mavjud asosiy bino, omborxonalarining xolatini tekshirish** ta'minlaydi.

SHNK 3.01.01-03 ga asosan to'liq hajmda ishlab chiqilsin. Ishchi loyiha ushbu topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Ishchi loyihasi 3 nusxada va elektron variantda (PDF), smeta xujjati 1- nusxada kitob va elektron (disk) shaklda amaldagi standartlar bo'yicha buyurtmachiga topshirilishi lozim.

Buyurtmachi tasdiqlovchi tashkilotlarning xizmatlari va ekspertizasi uchun haq to'laydi.

**Tuzuvchi Bosh muxandis**



**S.Usmanov**

**Texnik-foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i**




**F.Babadjanov**

**Bosh energetik**



**A.Choriyev**

**1-toifali muxandis**



**S.Toshmatov**

**Fuqoro va mexnat muxofazasi bo'limi boshlig'i**



**G'.Rashidov**